


**Abdulhamid Cho`lpon hayoti va ijodiga
bag`ishlangan qo`llanma**






O'zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897 yilda Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li (1874 — 1929) dastlab dehqonchilik, so'ngra bazzozlik bilan shug'ullangan. Taniqli jurnalist va yozuvchi Mo'minjon Muhammadjonov «Turmush urinishlari» kitobida qayd etishicha, Cho'lponning otasi Sulaymonqul o'z davrining yetuk ziyolisi, ma'rifatparvar kishisi bo'lgan. U «Rasvo» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan, devon yaratgan.

Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal o'zlashtiradi. Mutolaa yo'li bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini o'rganadi. Sharq va G'arb ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan oziqlanadi. Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi buyuk so'z san'atkorlari ijodini mehr bilan o'rganadi.

Cho‘lpon dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga asr boshlaridagi demokratik inqiloblar hamda jadidchilik harakati katta ta’sir ko‘rsatgan.


Cho‘lponning ijodi 1913—1914 yillardan boshlangan bo‘lib, u avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat «Cho‘lpon» (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o‘z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shadi. Cho‘lponning dastlabki asarlari «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» kabi mahalliy gazetalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan «Sho‘ro» jurnalida nashr etiladi. Cho‘lponning «Ishtirokiyun», «Qizil Bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» kabi gazetalardagi faoliyati ham uning ijodiy shakllanishida maktab bo‘lib xizmat etadi.




Abdulhamid Cho‘lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi qatag‘onlik siyosati qurboni bo‘lgan. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4- oktabrida otib tashlangan. 1956-yilda oqlanib, 1991-yildagina birinchi bor «Yana oldim sozimni» nomi bilan eng yaxshi she’riy asarlari to‘plam holida nashr etildi. Keyingi bir jildlik kitobidan uning kengaytirilgan tarjimai holi, (prof. O. Sharafiddinov) «Kecha va kunduz» romani o‘rin olgan.

Hozirgi kunda Cho‘lpon nomida nashriyot, ko‘cha, mahalla, kutubxona va maktablar qo‘yilgan. Uning Fozila (1906), Foiqa (1903) ismli qizlari va nabiralari Namanganda yashaydi. Unga 1991-yil 25-sentabrda «Yana oldim

sozimni» kitobi uchun Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi.



Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani yaratilganiga qariyb 80 yil bo‘lsa-da, u hamon qo‘ldan-qo‘lga o‘tib kelmoqda. Mazkur asar ikki qisimdan iborat bo‘lib, dastlabki – Kecha” deb nomlangani qo‘lingizdagi kitobda aks etadi. “Bugun” deb atalgan ikkinchi qismi haqida esa ma’lumotlar yo‘q. Kitobda o‘zbeklarga xos andisha, himmat, iffat va soddalik kabi fazilatlar bilan birga xotinbozlik va mol-mulk orttirish yo‘lidagi illatlar ham o‘z intiqosini topgan. Bu kabi sifatlar va illatlar kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi. Cho‘lpon dunyosi, uning olami, ijodidagi nafislik va serjilolik siz azizlarga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz. Asar yoshlarning milliy ma’naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.



Tarjimalari

- Cho'pon Shekspirning "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov" va "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", Andreyevning "O'silgan yetti kishining hikoyasi", Gorkiyning "Yegor Bulichev va boshqalar", "Ona" kabi ko'plab asarlarni tarjima qilgan.



KO'NGIL

Ko'ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,

Tubanlik mangu ketmasmi?

Kishanlar parchalanmasmi,


Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksan, o'lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan;

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan!..



Sahri andi gap echdi:
– Bina saharlab cho'pganim bakorga emas...
– Men ham sevganman... Yuragim bir qur seskanib ham eldi...
– Nimaga, o'naqjon?
– O'zingiz bilgan so'vchilar balosi-da... Qish ishi keti uzilmadi.
– Manam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib
kelsamnikan, deb edim...
– Nimasini aytasiz... Aqiqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.
Zabining yuzini, shu topda, buning qish ishi to'planib qolgan horg'indikning
asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko'rganing kata-kata qavig'iga
tikilgan andishalik ko'zlari hovur bosgan oynakning ba'iga o'xshardi.

Go'zal Turkiston

Go'zal Turkiston senga ne bo'ldi?
Sahar vaqtida gullaring so'ldi,
Chamanlar barbod qushlar ham faryod
Hammasi mahzun bo'lmas mi dilshod?
Bilmam nechun qushlar uchmas bag'chalarinda?

Birlig'imizning tabranmas tag'i
Umidimizning so'nmas chirog'i
Birlash ey xalqim kelgandir chog'i,
Bazansin imdi Turkiston bog'i.
Qo'zg'al xalqim yatar shuncha javru jafolar.

Ol bayrog'ingni qalbing o'yg'ansin,
Qullik asorat barchasi yonsin,
Qur yangi davlat yovlar o'rtansin,
O'sib Turkiston qadding ko'tarsin
Yayrab yashnab o'z vatanning gul bag'larida

Cho'lpon dramaturg

- "Yorqinoy" (1920)
- "Uzunquloq bobo"
- "Qorovul uyqusi"
- "Yana uylanaman" (1926)
- "O'rtoq Qarshiboyev" (1928)
- "Hujum" (1928)
- "Mushtumzo'r"




ARXIV.UZ



Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosining ma'lum qismini nasriy asarlar tashkil etadi. O'z davri adabiy hayotida shoh sifatida tanilgan Cho'lpon she'rlar bilan birga «Qarvon jaholat», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda» kabi hikoyalar yozadi. 30 yillarda «Kecha va kunduz» romani ustida jiddiy ishlaydi.

Amma Zabirning tasi Raxxoq so'fining unaligi, qovog'idan qor yosib turishi romanning birinchi sahifalaridayoq o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Zabi, Sahnat, Qurvonbilar bir taraf, Raxxoq so'fi o'z tabiatiga ko'ra tarosining ikkinchi pallasida turadigan qahramon sifatida beriladi. Muallif ta'biricha, Raxxoq so'fi «o'z uyining qabristonlar qadar jinjit, xonaqohlar qadar unisiz, o'z ko'ngli qadar unil va xo'mraygan bo'lishini» istaydi. Uning ruhida «bulutli havo» tabiatidagi bahoriy uyg'unlashga, yoshlikning zangor quvonchiga xid qo'yiladi.

Hayotdagi ijtimoiy-maishiy qarama-qarshiliklar, insonlararo konflikt roman voqealarini qiziqarli bayoniga xizmat qilishi tabiiy. Eng qizig'i shuki, Raxxoq so'fi boshdagi namozidan uyiga kirgan mahali hovlisida qizlarning quvalashib shovqin solayotgani usidan chiqadi. «Bu nima qiyomati» – so'fining mana shu gapi bahonasida yozuvchi unga qaytib bir yo'la Raxxoq so'fi o'tinishi va xos tabiat bilan o'quvchini tanishtiradi.



BUZILGAN O'LKAGA

Ey, tog'lari ko'klarga salom beran zo'r o'lka,
Nega sening boshingda* quyuq bulut ko'lanka?
Uchmoxlarning kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,

Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?
Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o'tini yo'q o'tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar
Har qorong'i, qo'rqinch tunning betida
Shifo istab kelmasin der, qo'noqlar.

-Bu nega?

Ayt menga.

Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,
Ustlarida na pada bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg'a osilg'on?
Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga

-Oh, yig'i,

Bu nega?

Tumorchalar xamoyillar taqingan,

Dalalarda lola bargi yopingan,

Tog'-toshlarda o'yin qilgan,

Chopingan

Go'zal qizlar, yosh kelinlar qaerda?

Javob yo'qmi ko'klardan-da, yerdan-da,

Xarob bo'lgan eldan-da.

Ot minganda, qushlar kabi uchguvchi,

Erkin-erkin havolarni quchg'uvchi,

Ot chopganda, uchar qushni tutquvchi,

Uchar qushday yosh yigitlar qaerda?

Tog' egasi - sor burgutlar qaerda?

Sening qattiq sir - bag'ringni ko'p yillardir ezganlar,

Sen bezsang-da, qarg'asang-da, ko'kragingda kezganlar.

Sening erkin tuprog'ingda hech haqi yo'q xo'jalar,

Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?

Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga?

Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qullarga?

Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?

Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?

Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?


Nega buncha umidsizdir turishing?


Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?

Nima uchun tunlaringda bo'rilarining qorni to'q?

Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydir** og'u-o'q?

Nima uchun borlig'ingda bu daraja buzg'unlik?
 Nima uchun o'ch buluti sellarini yog'dirmas?
 Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?
 Kel, men senga qisqagina doston o'qiy,
 Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.
 Kel, ko'zingning yoshlarini surib olay
 Kel, yarali tanlaringni ko'rib olay, to'yib olay.
 Nima uchun ag'darilgan, yiqilgan
 Og'ir toyning zahar o'qi ko'ksingda?
 Nima uchun yovlaringni bir zamon
 Yo'q qilg'unday temirli o'ch yo'q senda?
 Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka,
 Nega sening bo'g'izingni bo'g'ib turar ko'lanka?





«ҚУТУЛИШ ЮЛДУЗИ» ИБРОҲИМ ХАҚҚУЛ
ИҲҚЛИККА КИРМАС.

www.arkivuz

#Мақолалар

bukhari.uz

XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHIDA JADIDLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIR ETGAN OMILLAR

XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHIDA
JADIDLAR DUNYOQARASHIGA TA'SIR ETGAN
OMILLAR



TURKISTONDA JADIDLAR HARAKATINING RIVOJLANISHI VA UNDA G'OZI YUNUSNING TUTGAN O'RNI

Jadidlar harakati Turkiston o'lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo'lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o'zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko'rsatishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo'lgan xo'rlik hissi edi.


Garchi chor ma'murlari musulmonlar yashaydigan hududlarda qanday yaxshi narsalarni joriy qilgan bo'lsalar, bu gimnaziyalarning ochilishi bo'ladimi, zavod va fabrikalarning qurilishi, bularning barchasini ular eng avvalo o'zlarining manfaatlari uchun amalga oshirdi. Qurol va quvvat nuqtayi nazaridan ojiz bo'lgan mahalliy xalq orasidan maydonga chiqqan bir guruh taraqqiyparvarlar mustamlaka va xo'rlik balosidan xalqni qutqarish uchun jadidlar harakatiga asos soldi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo‘q. Bu yerda ham Buxoroda bo‘lgani kabi jadid-qadim munozaralari, ikki qatlamning o‘zaro tushunmasligi kabi muhit hukmron edi. “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 23-may kungi sonida chop etilgan “Jadid va qadim nedur?” maqolasi so‘zimizga isbot bo‘la oladi. Maqola muallifi Abdulloh Shoshiy jadid va qadim kalimalarida hech qanday gunoh yo‘qligini ta’kidlab, balki haqiqiy gunoh “rasmiy qabihchamiz ila odati shar’iyyadadir”, deydi [1:2]. Shu boisdan ham o‘zaro ixtiloflarni tugatib, ikki tomon ham bir-birini eng avvalo tushunib olishlari lozimdir. Shuningdek, muallif musulmonlarning ikkinchi manbasi bo‘lmish hadisdan “Binobarin Hazrati Imom Rabboniyni mujaddidi soniy derlar. Yani sanoyi hijriyaning ikkinchi minggida dinni jadid qilg‘uvchi, rivojlantirguvchi va nusrat yuborguvchi deyiladir va ham hadisda kelibdurki, “Alloh taolo hazrati yuborur va paydo qilur bu ummat marhamatining nafi uchun va dini islomning rivoji va taraqqiysi uchun har yuz yil boshida mujaddid yuboradur”, misolini keltirib, ilohiy mohiyat va dinning o‘zi jadidlikni ya’ni islohotchilikni talab qilishini yozadi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga G‘ozi Yunus ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shdi. U ham taraqqiyparvarlar bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Obidjon Mahmudov va boshqa shu kabi insonlarning maslak va maqsadlari yo‘lida xizmat qildi. U bir tomondan turli xil bid‘at va xurofotlarga chirmashib ketgan islomni pok va musaffo holatga keltirish lozimligini ta’kidlasa, boshqa tomondan xalqni yangi usul maktablarida o‘qishga targ‘ib etdi. G‘ozi Yunus ham aksariyat ziyolilar kabi eski usul maktablari o‘z umrini o‘tab bo‘lganini, undan endi hech qanday foyda yo‘qligini aksincha qaytaga zarar keltirishini ta’kidladi. Jumladan, u o‘zining “Eski maktablar haqinda” nomli she’rida shunday yozadi:

Ko‘z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz,
Ish agar bu yo‘lda ketsa ne bo‘lur ahvolimiz.
Yangi maktablar ochildi bizga lozimdur o‘qish
Ilm olsaq yaxshi bo‘lg‘ay bizning hama af‘olimiz.
Eski maktab orqasida bo‘ldi Turkiston harob
Ilmsizlik orasida bitguvsi islomimiz. [2:3]

G‘ozi Yunus ongli musulmon sifatida islom dinining mintaqa hayotida tutgan o‘rnini chuqur anglagan. U bu dinning eng yetuk vakillari bo‘lmish ulamolarga murojaat qilib, ulardan Turkiston xalqlarini uyg‘otishni, jaholatdan ma’rifatga yo‘naltirishni, turli xil fitna va fasodlarni tugatishni so‘ragan. G‘ozi Yunus ularning asl vazifasi firqalarga bo‘linib olib janjallashishda emas, balki millat va xalqni ma’rifatli qilishda ekanini ta’kidlagan.



**Mahmudxo'ja
Behbudiy.**

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Behbudiy 1875-yilda Samarqandda tug'ildi. O'z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egalladi. U dastlab Samarqand shahri yaqinidagi bir qishloqda jahon ilm-fani yutuqlaridan saboq berishga mo'ljallangan yangi usul maktabini ochdi. Bu maktab uchun qator darsliklar yaratdi.

Chunonchi, «Savod chiqarish kitobi», «Qisqacha umumiy geografiya», «Aholi geografiyasiga kirish» deb nomlangan darsliklar shular jumlasidan edi. Behbudiy yosh avlod tarbiyasida teatrning ham katta rol o'ynashini to'g'ri baholayoldi.

Shuning uchun sahna asari ham yozdi. Uning «Padarkush» nomli sahna asari katta shuhrat qozondi.

Behbudiy «Samarqand» deb ataluvchi gazeta va «Oyna» deb ataluvchi jurnal ham nashr ettirdi.

Ularining sahifalarida yosh avlodni

Jadidchilik dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda
Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin.

Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnatilishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi.


Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „**Xitobnoma**“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi.

Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va

ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.


So'nggi besh yuz yilda tarix bizni kamida ikki marotaba o'ta muhim tanlov qarshisiga qo'ydi. XV asrda temuriylar davlati inqirozga yuz tuta boshlagach, uni saqlab qolish masalasi kun tartibiga chiqdi.

Bu olamgirlik qahramonlik sanalgan zamonda g'anim qarshisida zaiflanishga, qoloqlik va xo'rlanishga, qullikka yo'l bermaslikning asosiy sharti bo'lgan. Zotan, Temur bunyod etgan shavkatli saltanat feodal anarxiya zamonidagi eng ilg'or tuzilma, Turk xoqonligi davridan boshlab va undan keyingi asrlarda ijtimoiy tafakkur peshtoqida jilvalangan orzuning ro'yobi, porloq tajassumi edi.



O'tgan yuz yillikning boshlari biz uchun ikkinchi o'ta muhim davr hisoblanad Dasturxonimizni o'sha, besh asr oldin boy berilgan imkoniyatning achchiq mevalari to'ldirib, qoloqlik, xorlik va qullik tahdidi zo'raydi. Vazifa tag'inda mushkul: endi borini saqlab qolmoq emas, yangisini qurmoq lozim edi.

Qonuniyat shuki,
tarixiy vazifa ijrochilarini har doim hayotning o'zi maydonga chiqaradi.
Chunonchi, XV asrda Alisher Navoiyning,
yuz yillar oldin esa jadid ma'rifatparvarlarining umum manfaat yo'lida olib bo
rgan faoliyati ham tasodif emas, tarixiy zaruriyatning voqelanishi bo'lgan.
Mutafakkir shoir qarshisida parchalanayotgan ayanchli saltanat,
sharafsiz turkiy til turadi. Ildiz otgan feodal qoloqlikni tugatish; hali na tarhi,
na amalga oshirish dasturi aniq bo'lgan mustaqil davlat barpo etish,
xalqining yurar yo'lini dunyo taraqqiyotiga uyg'unlashtirish vazifasi esa jadid
lar chekiga tushgan.



ARXIV.UZ

**XX asr boshiga kelib
Turkistonda jadid
ziyolilarining butun
bir avlodi, o'lka
ma'naviy-ma'rifiy
soha taraqqiyotiga,
milliy
madaniyatning
rivojlanishiga katta
hissa qo'shgan
namoyandalari
vujudga keldi.**

Turkiston jadidlar

09/04/2020 <http://aida.ucoz.ru> 3

1938-yilning shu kunida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, yana faoliyati aksariyat jamoatchilikka noma'lum qolayotgan yuzdan oshiq o'zbek ziyolilari o'z vatanining poytaxti Toshkentda kommunistlar rejimi rahbari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlangan. Qatl etilganlarning barchasi milliy uyg'onish harakati faollari, jadidchilar edi. Turkistonni bosqindan,

qoloqlik botqo'g'idan, arosatdan ozod qilishga bel bog'lagan, buni qurolli qo'zg'alon emas, o'qish, ta'lim sifati bilangina amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparvarlar "xalq dushmani" tamg'asi ostida otuvga hukm qilindi. Inqirozdagi Turkiston umidlari sifatida siyosiy maydonga chiqqan bu oydinlarning xiyonatkorona qatl etilgani uzoq yillar millatdan yashirildi. Mustaqillikka kelib marhum prezident Islom Karimov jadidlar xotirasini abadiylashtirdi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi. Ammo bundan qat'i nazar, jadidlar merosiga nisbatan xovotir tuzumni tark etmadi, ular adabiyoti mamlakatda targ'ib etilmadi, jadidlar g'oyasi qabul qilinmadi. Iqtidordagi hukumat davriga kelib bu xavotir bir qadar bosilayotgandek ko'rinadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchilar kuni munosabati bilan o'tgan tantanada sovetlar qatl etgan jadidchilar Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash qarorini ma'lum qildi.



Jadidchilik (arabcha yangi) – XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy [harakat](#).

Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda,

Abdulla Qodiriy, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr boshlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maxmur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma’rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordilar.



Do'stlik takm bibliografi

